

## XORAZM KULOLCHILIK SAN'ATI TARIXI VA KO'ZGA KO'RINGAN NAMOYANDALARI

Boltayeva Moxira Rashid qizi

“Ichan-Qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimi.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm kulolchilik san'atining paydo bo'lishi, kulolchilik haqida tushuncha, shuningdek Xorazm kulochilik san'atining o'ziga xosligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** sopol, Raximberdi, Madir, Davron Sa'dullaev, Amin Mirzaev, Maryamjon Matchanova, Mukaramma Sa'dullaeva.

## HISTORY OF KHORAZM POTTERY ART AND ITS PROMINENT IMPLEMENTS

### ABSTRACT

This article provides information about the emergence of Khorezm pottery art, understanding of pottery, and the uniqueness of Khorezm pottery art.

**Keywords:** sopol, Raximberdi, Madir, Davron Sa'dullaev, Amin Mirzaev, Maryamjon Matchanova, Mukaramma Sa'dullaeva.

Neolit davrida idishlarning taglari uchli kilib tayyorlanib erga sanchib ko'yilgan. VIII – XII asrlarda Xorazm diyorida madaniyat, xunarmandchilik, savdo sotiq rivoj topdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib - kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Sopol buyumlarni sirlab bezashning o'ziga xos uslublari vujudga keldi. Har bir xunarning o'ziga xos mashaqqati sir-asrorlari bo'ladi. Ota- bolalarimiz qadimdan kulolchilik sirlarini va tajribalarini o'z avlodlariga o'rgatishgan xar bir maxsulotning sifatiga badiyligiga foydalanish uchun qulayligiga uning umrboqiyligiga aloxida e'tibor bergenlar. Shuning uchun oddiy sopol piyolalardan tortib tarixiy yodgorliklarimizni bezab turgan koshinlarning umirboqiyligi dunyo axlini lol qoldirib kelmoqda.

Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda Kulolchilik san'ati qadimiy san'at turi bo'lib, xalq ustalari uni asrlar davomida o'z mahoratlari bilan ri vojlantirib kelmoqdalar. Bugungi kunda kulolchilik san'ati asosida yasalgan turli xildagi buyumlarga yangidan jilo berilmoqda. Bu san'at xo'jalik buyumlari bilan

bir qatorda tarixiy obidalar, zamonaviy uy-joylar, inshootlar, hiyobonlarga chiroy baxsh etmoqda.

Kulolchilikning paydo bo‘lishi hunarmandchilikning ko‘pgina turlari qatori insonning ko‘chmanchilikdan o‘troqlashuviga o‘tishini ta’minlovchi omillardan biri bo‘ldi. O‘troqlashuvlik omili o‘z navbatida kulolchilikning rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynagan. Sopol idishlar yasash, ayniqsa, miloddan avvalgi uch-bir ming yilliklar davrida bronzadan qurol-aslahalar yasash, charx va qolip singari buyumlarni insoniyat tomonidan kashf etilishi asosida rivoj topdi.

XX asrda Xorazm kulolchilik maktabi rivojlanishida Raximbergan Matchanovning o‘rni tengsizdir. Raximberdi Matchanov Xorazmning kadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog‘ida 1909-yil kulollar oilasida dunyoga keldi. Shu davrda qishloqda 27 ta kulolchilik ustaxonasi bo‘lib, 80 dan ortik kulollar ishlashgan. Matchon kulolning o‘g‘li Raximberdi o‘z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o‘rgandi. Koshin pishirishni shu davrning nom qozongan ustalari Bolta Matrizaev, Bolta Vaisovdek ustalardan o‘rgandi. Raximberdi Matchanov kulolchilik sirlarini 6 yil deganda o‘rganib Eshim kulolning oq fotixasini oldi. O‘zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi. U 1930-yillarda koperativ artel’ga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O‘sha davrda kulollar kamayib ketgan edi. Shu bilan birga usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o‘rgandi va shularni kulolchilikda ishlatdi. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o‘xshatishadi. Chunki, juda ko‘p shogirdlar etishtirib chiqargan. Usta ko‘plab shogirdlariga o‘z xunarini sir-asrorlarini o‘rgatgan. Bugungi kunda Xorazmda bu qadimiy san’at avlodda-avlodga an’ana tariqasida o‘tib kelgan va hozirgi kunda ham rivojlanib takomillashib kelmoqda.

Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o‘rgandi. U shu o‘rgangan naqshlarini kulollik buyumlariga qo‘llashga astoydil intilib, XIX—XX asr Xiva koshinkorlik an’analarini boyitadigan buyumlarni yaratdi. Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlanganda so‘ng qo‘lda va shtamp yordamida naqsh chizish, unga sir berilib oftobda quritili pechda qizdirish sirlarini ham mukammal o‘rgandi. Usta sirni o‘zi tayyorlardi.

Xalqimiz «shogirdsiz usta mevasiz daraxt» deb bejiz aytmagan. Ustani Xorazmda sermeva daraxtga o‘xshatishadi, chunki juda ko‘p shogirdlar yetishtirib chiqardi. Uning shogirdlari Davron Sa’dullaev, Amin Mirzaev, Maryamjon Matchanova, Mukaramma Sa’dullaevalar hozir badiiy kulolchilik san’atini rivojlantirishda katta hissa qo‘shmoqdalar.

Tarixiy obidalarni ta’mirlashda usta kulolning xizmatlari katta. Xorazmda bu qadimiy san’at avloddan-avlodga an’ana tariqasida o‘tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ana shunday badiiy kulolchilik an’anasini davom ettirib

kelayotgan Xorazm, xususan Madir kulolchilik matabining yirik vakillaridan biri, Reimbardi Matchanovning o‘g‘illari usta kulol Odilbek Matchonov o‘z otasidan o‘rgangankulolchilik sirlarini davom qildirgan holda, zamonaviy arxitektura binolarini fasadlarini badiiy bezashda o‘zining takrorlanmas koshinlari bilan mashhurdir. Hozirgi qadimiy san’at turlaridan bo‘lgan kulolchilikni rivojlanib shogirdlariga orgatib kelmoqda. O‘zining jilosi, sehri, uslubi va dizayniga ega bo‘lgan bejirim Madir kilolcilik buyumlari dunyoga o‘z dovrug‘ini tarataveradi albatta.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Л.Ф.Акунова, С.З.Приблуда. Материаловедение и технология производства художественных керамических изделий. — М.: «Высшая школа», 1979 г. 231 стр.
2. И.Азимов. Узбекистан накшу нигорлари. Т. 1987 г. 214 б.
3. А.Бердиев Приготовление керамических изделий. VI.: 1981 г. 234 стр.
4. А.И.Миклашевский, Технология художественной керамики. М. Л.: 1971